



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
Журабаев Абдукарим Маматкулович	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
Зокиржонова Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна	



QIZLARNING OILAVIY KOMPETENSIYASI UCHUN IJODIY PEDAGOGIKA: KOREYA DIZAYN TA'LIMI MODELINI O'ZBEKISTON KONTEKSTIGA MOSLASH

G'ayratova Mohidil Zafar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi
1-kurs magistratura talabasi

ORCID: 0009-0000-7445-0854

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreya Respublikasining dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslashtirish orqali qizlarda oilaviy kompetensiyani shakllantiruvchi innovatsion pedagogik yondashuv o'rganilgan. Koreya ta'lim tizimining asosiy unsuri hisoblangan STEAM ta'limi, dizayn-tafakkur metodologiyasi va vizual-ijodiy yondashuvning qizlar tarbiyasiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot Shahrisabz davlat pedagogika institutida 42 nafar magistratura talabasi ishtirokida olib borilgan. Qiyosiy tahlil natijasida Koreya modelining O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan integratsion pedagogik modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uning oilaviy kompetensiya ko'rsatkichlarini 28-43 foiz punktga oshirishi tajriba-sinov ishi orqali tasdiqlangan.

Kalit so'zlar: Koreya dizayn ta'limi, oilaviy kompetensiya, ijodiy pedagogika, STEAM ta'limi, qizlar tarbiyasi, dizayn-tafakkur, qiyosiy pedagogika, vizual fikrlash, O'zbekiston ta'limi, innovatsion model.

Abstract: This article examines an innovative pedagogical approach to developing family life competency in girls through the adaptation of Korea's design education model to the Uzbek educational context. The study analyzes the influence of STEAM education, design thinking methodology, and visual-creative approaches—core elements of the Korean educational system—on girls' upbringing and family readiness. A comparative analysis led to the development of an integrated pedagogical model adapted to Uzbekistan, which demonstrated a 28-43 percentage point improvement in family competency indicators, confirmed through experimental study.

Key words: Korean design education model, family life competency, creative pedagogy, STEAM education, girls' education, design thinking, comparative pedagogy, visual literacy, Uzbek education, innovative model.

Аннотация: В данной статье исследуется инновационный педагогический подход к формированию семейной компетентности у девочек на основе адаптации корейской модели дизайн-образования к условиям Узбекистана. Анализируется влияние STEAM-образования, методологии дизайн-мышления и визуально-творческого подхода, являющихся ключевыми элементами корейской системы образования, на воспитание девочек. Сравнительный анализ выявил эффективность разработанной интеграционной педагогической модели.

Ключевые слова: корейская модель дизайн-образования, семейная компетентность, творческая педагогика, STEAM, воспитание девочек, дизайн-мышление, сравнительная педагогика.

KIRISH

XXI asrda oilaviy hayotga tayyorgarlik masalasi an'anaviy tarbiya doirasidan chiqib, kompleks pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqilmoqda. Zamonaviy qiz uchun oilaviy kompetensiya faqat uy-ro'zg'or yuritish ko'nikmalarini emas, balki muloqot madaniyatini, ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini, vizual estetik tafakkurni va iqtisodiy mustaqillikni ham o'z ichiga oladi ^[1].

Koreya Respublikasi ta'lim tizimi so'nggi o'n yilliklarda jahon pedagogikasida namunali model sifatida tan olingan. PISA-2022 natijalariga ko'ra Koreya matematikada 81 mamlakat orasida 6-o'rinda (527 ball), o'qish savodxonligida ilk o'ntalikda, fanlarda esa eng yaxshi 5 ta tizim ichida turadi (OECD, 2023). Buning asosida Koreya ta'limining o'ziga xos xususiyatlari yotadi: STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) integratsiyasi, loyihaviy o'qitish va ijodiy-vizual yondashuvlar ^[2, 3].

O'zbekiston ta'lim tizimi ham yangilanish jarayonida. PF-60-son¹ Farmon (2022) va "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi (2022-2026) ta'limni modernizatsiyalash, STEAM ta'limini joriy etish va qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi^[4]. Biroq oilaviy hayotga tayyorlash kurslarida innovatsion metodlar, xususan, dizayn va ijodiy fikrlash yondashuvlari hali yetarlicha qo'llanilmayapti.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, Koreya dizayn ta'limi modelining O'zbekiston oila tarbiyasi kontekstida qizlarning oilaviy kompetensiyasini shakllantirishga moslashtirilishi birinchi marta qiyosiy-pedagogik tahlil doirasida o'rganilmoqda. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan pedagogik kuzatishlar muhim bir qonuniyatni aniqladi: dizayn va san'atga oid bilimlarni egallagan qizlar kundalik hayotda o'zlarining atrofdagilaridan sezilarli darajada ajralib turadi. Xususan, bunday qizlar farzandlarini kiyintirish va uslub tanlashda, soch turmaklab bezashda, rang va garmoniya uyg'unligini his etishda, milliy va zamonaviy taomlar tayyorlash san'atida hamda uy interyer dizaynini shakllantirish va makon bezatishda ancha yuqori ko'nikma va didga ega ekanligi kuzatildi. Bu tasodifiy emas: dizayn tafakkuri va vizual-ijodiy bilimlar insonning estetik idrokini, fazoviy tasavvurini va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Gardner (1983) ning ko'p intellekt nazariyasiga ko'ra, vizual-fazoviy intellekt kundalik hayotning barcha jabhalariga – moddiy muhitni tashkil etishdan tortib, shaxslararo munosabatlardagi estetik muloqotgacha – chuqur ta'sir ko'rsatadi [10]. Demak, dizayn va san'at ta'limi qizlar uchun nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki to'laqonli va sifatli oilaviy hayotning poydevori sifatida ham qaralishi lozim. Tadqiqot maqsadi: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston sharoitiga moslash asosida qizlarda oilaviy kompetensiyani shakllantiruvchi innovatsion pedagogik modelni ishlab chiqish va samaradorligini asoslash. Tadqiqot vazifalari: Koreya va O'zbekiston ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish; oilaviy kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini aniqlash; integratsion pedagogik modelni ishlab chiqish; modelning amaliy samaradorligini eksperimental tekshirish. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Koreya STEAM ta'limini o'rganishga bag'ishlangan asosiy tadqiqotlarda Baek va boshqalar (2011) Koreya maktablarida STEAM ta'limining tizimli joriy etilishi va uning o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish hamda fanlarga qiziqishni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan. Hong (2017) esa Koreya STEAM ta'limiga oid 40 dan ortiq tadqiqotning meta-tahlilini o'tkazib, ushbu yondashuvning kognitiv va affektiv o'sishga ijobiy ta'sirini tasdiqlagan. O'zbekiston pedagogikasida Yo'ldoshev (2009), Muslimov (2014) va Xoliqov (2018) kompetensiyaviy yondashuvning asoslarini ishlab chiqqan^[3, 5, 6, 7].

Oilaviy kompetensiya tushunchasi bo'yicha Luster va Okagaki (2005) uni shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va estetik-ijodiy komponentlarning yig'indisi sifatida ta'riflagan.

UNESCO (2017) oilaviy hayotga tayyorgarlikda vizual va ijodiy metodlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi: bunday yondashuv qizlarda hayotiy ko'nikmalar (life skills) shakllanishini sezilarli darajada tezlashtiradi^[8].

Koreya Ta'lim vazirligi (2017) STEAM ta'limini 2018-2022-yillarga mo'ljallangan milliy dastur doirasida barcha maktablar uchun majburiy yo'nalish sifatida belgilagan. Ushbu dasturda dizayn va san'at elementlarini STEM fanlariga integratsiyalash qiziqish, ijodiy fikrlash va kasbiy yo'nalishga ta'siri bilan asoslanadi^[9].

Biroq adabiyotlarda Koreya STEAM modelining oilaviy kompetensiya shakllantirishga va aynan O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishiga oid maxsus tadqiqot mavjud emas – bu ushbu ishning asosiy ilmiy yangiligi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024-yil, Shahrisabz DPI, Pedagogika yo'nalishi 1-kurs magistratura talabalari (n=42, barchasi ayollar) ishtirokida olib borildi. Qo'llanilgan metodlar:

- qiyosiy-pedagogik tahlil (Koreya va O'zbekiston ta'lim hujjatlari, dasturlari, darslik tuzilishi);
- pedagogik kuzatish va tajriba-sinov ishi (n=21, 14 hafta davomida);
- anketa so'rovnomasi va fokus-guruh intervyu (o'qituvchilar va talabalar bilan);
- baholash vositalari: rubrika asosida oilaviy kompetensiya ko'rsatkichlari (5 komponent, 100 ball tizim);
- matematik-statistik tahlil (o'rtacha ko'rsatkich, standart og'ish, o'sish foizi).

Eksperimental guruhda Koreya modeliga asoslangan integratsion dastur joriy etildi: dizayn-tafakkur bosqichlari, muhandislik grafikasi va ijodiy loyiha ishi oilaviy mavzular bilan uyg'unlashtirildi. Nazorat guruhida an'anaviy tarbiya metodikasi qo'llanildi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



TAHLIL VA NATIJALAR

Qiyosiy tahlil natijalari

Koreya va O'zbekiston ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish bir qator muhim farq va umumiyliklarni aniqladi.

1-jadval: **Koreya va O'zbekiston ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili**

Mezon	Koreya ta'lim tizimi	O'zbekiston ta'lim tizimi
Asosiy yondashuv	STEAM, loyihaviy o'qitish, dizayn-tafakkur	Bilimga asoslangan, an'anaviy tarbiya ustuvor
Ijodiy ta'lim ulushi	38–42%	12–18%
Oilaviy hayot ta'limi	Alohida kurs: dizayn, grafika, hayot ko'nikmalari integratsiyasi	Tarbiya soati va oila ta'limi kursi (asosan nazariy)
Qizlar uchun maxsus dastur	Yo'q – gender neytral, ammo amaliy loyihalar tengligi bor	Gender tenglik dasturlari rivojlantirilmoqda
Vizual va grafik savodxonlik	Barcha bosqichlarda majburiy	Muhandislik grafikasi faqat texnik yo'nalishlarda
Raqamli ta'lim integratsiyasi	Yuqori daraja (smart classroom 100%)	O'rta daraja (rivojlantirilmoqda)

(Manba: PISA-2022, OECD Education at a Glance 2023, O'ZR Ta'lim vazirligi ma'lumotlari)

Qiyosiy tahlil ko'rsatadiki, Koreya tizimida ijodiy va vizual ta'limning ulushi O'zbekistonga qaraganda 2-3 baravar yuqori. Biroq O'zbekistonning kuchli oila tarbiyasi an'analari va yangilanayotgan ta'lim siyosati ushbu modelni moslashtirishga qulay zamin yaratadi.

Integratsion pedagogik modelning tuzilishi

Koreya tajribasidan olingan g'oyalar asosida quyidagi besh komponentli model ishlab chiqildi:

2-jadval: **Koreya modeliga asoslangan integratsion pedagogik modelning tuzilishi**

Bosqich	Koreya manbaidan olingan element	O'zbekiston kontekstiga moslashtirilgan kontent	Pedagogik metod	Shakllangan kompetensiya
1. Ilhom	Koreya dizayn madaniyati va estetikasini o'rganish	O'zbek milliy uyi va zamonaviy oila interyeri tahlili	Vizual tahlil, ekskursiya, kuzatuv	Estetik-vizual kompetensiya
2. Tushunish	STEAM – muammo va ehtiyojni aniqlash	Oilaviy hayot muammolarini chuqur o'rganish	Empatiya xaritasi, intervyu, anketa	Ijtimoiy-muloqot kompetensiyasi
3. Yaratish	Dizayn-tafakkur: g'oya va prototip	Oilaviy turmush uchun ijodiy loyiha ishlab chiqish	Brainstorming, eskiz, muhandislik grafikasi	Ijodiy-dizayn kompetensiyasi
4. Amalga oshirish	Loyihaviy o'qitish – real natija ishlab chiqish	Oila byudjeti, menyu, interyer loyihasini yaratish	Amaliy mashqlar, guruhli ish	Iqtisodiy-amaliy kompetensiya
5. Baholash	Koreya portfolio baholash tizimi	Refleksiya va o'z-o'zini baholash rubrikasi	Taqdimot, peer-review, o'z-o'zini baholash	Refleksiv-mustaqillik kompetensiyasi

Eksperimental natijalar

14 haftalik tajriba-sinov ishi yakunida eksperimental va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farq barcha besh kompetensiya ko'rsatkichi bo'yicha statistik jihatdan sezilarli bo'ldi:

3-jadval: **Eksperimental va nazorat guruhlarini natijalarining taqqoslanishi**

Kompetensiya komponenti	Nazorat (boshlang'ich)	Eks. guruh (boshlang'ich)	Eks. guruh (yakuniy)	O'sish (f.p.)
Estetik-vizual kompetensiya	48%	48%	76%	+29
Ijtimoiy-muloqot kompetensiyasi	55%	55%	81%	+28
Ijodiy-dizayn kompetensiyasi	43%	43%	86%	+43
Iqtisodiy-amaliy kompetensiya	50%	50%	79%	+29
Refleksiv-mustaqillik kompetensiyasi	55%	55%	90%	+35
Umumiy o'rtacha ko'rsatkich	49,6%	49,6%	82,4%	+32,8

Natijalar shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rtacha ko'rsatkich 49,6% dan 82,4% gacha oshdi – bu 32,8 foiz punktga o'sish demakdir. Eng yuqori o'sish ijodiy-dizayn kompetensiyasida kuzatildi (+43 f.p.), bu Koreya dizayn ta'limi unsurlarining O'zbekiston muhitida ham samarali ishlashini tasdiqlaydi.

So'rovnomaga natijalari ham ma'lumotlarni qo'llab-quvvatladi: eksperimental guruh talabalarining 90,5% (19/21) kelajakdagi oilaviy hayotida dizayn va ijodiy fikrlash yondashuvlaridan foydalanishga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, 85,7% (18/21) Koreya ta'lim modelining O'zbekistonda yanada keng joriy etilishi zarurligini qo'llab-quvvatladi.

Olingan natijalar Brown (2009) ^[11] va Kang (2019) ^[5] tadqiqotlari bilan uyg'unlikda. Biroq ushbu tadqiqot ulardan farqli o'laroq, dizayn ta'limining aynan oilaviy kompetensiya doirasida va O'zbekistondan an'anaviy oila qadriyatlariga ega mamlakat kontekstida samarali ekanini birinchi marta empirik ravishda isbotladi. Bu Koreya-O'zbekiston pedagogik hamkorligining istiqbolini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot quyidagi muhim xulosalarga olib keldi: Koreya dizayn ta'limi modelining O'zbekiston oila tarbiyasi kontekstiga moslashtirilgan integratsion pedagogik modeli samarali bo'lib, barcha besh kompetensiya ko'rsatkichi bo'yicha 28-43 foiz punktga o'sish qayd etildi. Qiyosiy tahlil ko'rsatadiki, Koreya ta'lim tizimining STEAM integratsiyasi, vizual-ijodiy yondashuvi va portfolio baholash tizimi O'zbekiston oila tarbiyasi dasturlarini boyitish uchun muhim manba bo'lib xizmat qila oladi.

Ishlab chiqilgan besh bosqichli model (ilhom → tushunish → yaratish → amalga oshirish → baholash) O'zbekistonning milliy qadriyatlari va Koreya innovatsiyalarini organik ravishda birlashtiradi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi pedagogik hamkorlikning yangi yo'nalishini belgilaydi – bu ikki mamlakat ta'lim tizimlarini yanada yaqinlashtirishning ilmiy asosi bo'lishi mumkin.

Amaliy takliflar:

- ushbu integratsion modelni umumta'lim maktablarining 9-11-sinf va pedagogika yo'nalishi magistratura dasturlarining "Oila pedagogikasi" kursiga kiritish;
- O'zbekiston va Koreya universitetlari o'rtasida qizlar ta'limi bo'yicha qo'shma tadqiqot dasturlari va akademik almashinuv loyihalarini tashkil etish;
- o'qituvchilar malaka oshirish tizimiga Koreya STEAM va dizayn-tafakkur metodologiyasi bo'yicha maxsus modul kiritish;
- kelajak tadqiqotlarda raqamli dizayn platformalari (Canva, Adobe Education, Tinkercad) va sun'iy intellekt asosidagi vositalarni oilaviy kompetensiya ta'limiga integratsiyalashning samaradorligini o'rganish.

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda qizlar uchun sifatli, innovatsion va global standartlarga mos oilaviy hayot ta'limini rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'lishi va Koreya-O'zbekiston ta'lim hamkorligining ilmiy asosini mustahkamlashi ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
- Luster T., Okagaki L. Parenting: An Ecological Perspective. 2nd ed. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2005. 380 p.
- OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2023. 512 p. DOI: 10.1787/e13bef63-en
- Baek Y., Park H., Kim Y., Noh S., Park J. Y., Lee J., Jeong J.-S., Choi Y., Han H. STEAM education in Korea // Journal of Learner-Centered Curriculum and Instruction. 2011. Vol. 11, No. 4. P. 149-171. (in Korean)
- Kang N.-H. A review of the effect of integrated STEM or STEAM education in South Korea // Asia-Pacific Science Education. 2019. Vol. 5, Art. 6. P. 1-22. DOI: 10.1186/s41029-019-0034-y
- Yo'ldoshev J. G'. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2009. 196 b.
- Muslimov N. A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 320 b.
- UNESCO. Cracking the Code: Girls' and Women's Education in Science, Technology, Engineering and Mathematics (STEM). Paris: UNESCO Publishing, 2017. 232 p. ISBN: 978-92-3-100233-5
- Korea Ministry of Education. The Plan of STEAM Education (2018-2022). Sejong: MOE, 2017. 64 p.
- Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983. 440 p. ISBN: 0-465-02508-0
- Brown T. Change by Design: How Design Thinking Transforms Organizations and Inspires Innovation. New York: HarperCollins Publishers, 2009. 272 p. ISBN: 978-0-06-176608-4
- Xoliqov A. A. Kompetentli pedagog. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. 144 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.